

SAID AHMADNING “ONAJONLAR” HIKOYASI QAHRAMONLARINING QISMATI

Sultanova Durjaxon Azamat qizi

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Rus tili va
adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi.*

Karimov Nomoz Mamasoliyevich

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Rus tili va
adabiyoti fakulteti katta o`qituvchisi, ilmiy rahbar*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Said Ahmadning “onajonlar” hikoyasidagi umr bo`yi o`g`lini kelishini kutgan mushtipar onaning umidlari sarobga aylangani yoxud kechikkan o`g`ilning qismati haqida so`z boradi. Asarda oddiy odamlarning turmush tarzi, dardu tashvishlari, quvonchlari va orzu-umidlari aks ettirilgankigi, Hayotning eng muhim, muammoli vaziyatlarini, o`tmishning inson ruhiyatiga ta`sir qilgan momentlarini kichik epik janrga, hikoyaga badiiy akslantirishda Said Ahmad mahorati to`g`risida fikrlar muhokamaga tortilgan.

**Kalit so`zlar:** ona, o`g`il, uy, xat, sut, shaftoli, oy, Ne`mat, garaj, ota, suv, uka, farzand dog`i, ichki kechinmalar, diydor.

Kirish: O`zbek adabiyotida qaysi adib ijodiga nazar tashlamaylik albatta, onani math etuvchi she`rlar, asarlar juda ko`p. Shunday shoirlardan biri, o`zining “Onajonlar” hikoyasi bilan mening e`tiborimni tortgan adib Said Ahmad bo`ladi.

Said Ahmad ijodida bir-biri bilan bog`liq ikki uslubiy yo`nalishni ko`rishimiz mumkin. Said Ahmad ham lirik, ham yumorist yozuvchi. Uning hikoyalarida ajoyib bir xususiyat tabiat tasviridir. Yozuvchi hikoyalarida mavzu tanlashda, avvalo hayotiy haqiqatlarga, boshdan o`tkazganlariga tayangan. Jumladan “Onajonlar” hikoyasida ham onalarning ichki kechinmalari, farzand dog`i iztiroblari, farzandning jamiyatdagi o`rni, o`sha paytning zulmlari haqida so`z boradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Onalar-bu insoniyat uchun eng aziz va muqaddas zotlardan biridir. Ular fidoiylilik va sabr-toqatning timsoli. Ona farzandini dunyoga keltiradi va butun umrini unga bag`ishlaydi.

Har bir insoniyat tarixida har qanday muvaffaqiyat poydevorida onalarning cheksiz mehnati, oqilona tarbiyasi va mehribon qalbi yotadi.

Horib-charchab kelarkanman, kampir to`g`on ustida meni kutib turardi.

— Ne`matdan xat, o`qib ber, bolam.

Uning qo`lidan uch burchak xatni olib, tabelchining budkasiga boshladim. Naryadchi qiz kursisini bo`shatib berdi. Xatni o`qiyotganimda kampir ikki qo`lini tizzasiga tirab, jimgina quloq solib o`tirdi.

O`g`li sog`-salomatligini aytib, yaralanib gospitalga tushib qolganini, yaqinda uyiga butunlay javob tegishini aytgan edi. Kampirning ko`zlari besaranjom bo`lib qoldi. Qo`limdan xatni olib orqa-o`ngini ag`darib qaradi.

- Hammasini o`qidingmi? Biron joyini tashlab ketmadingmi? Qayeridan yaralanganini o`qib bermading-ku!

Xatda Ne`mat qayerdan yaralanganini aytmagan edi. Kampir tashvishda qoldi.

Shu-shu bo`ldi-yu, kampir baragimizga kelmay qo`ydi. Uni goh katta yo`lda, dasturxonga tugilgan paxtani boshiga qo`yib, goh chelakda ohak olib ketayotganini ko`rib qolardik.

Bilib turibmiz. U o`g`lining kelishiga tayyorlanayotibdi.

Uning uyi bosh to`g`on tushayotgan do`ngning nari yog`idagi o`rikzorda edi. Hovlisidagi bir tup azamat sadaqayrag`och uzokdan ko`rinib turadi. Eri daryoda qayiqchilik qilgan. Islohot yillari erini dushmanlar daryoga cho`ktirib yuborishgan. Bittayu bitta o`g`li frontga ketgan. Huvillab qolgan katta hovlida bir o`zi yashaydi. Kechqurunlari eshigi oldidagi supada hassasini yerga tirab, o`g`lining yo`liga ko`z tutib o`tiradi. Qorong`i tushgandagina kirib, alla-pallagacha uxlamay, tiq etsa eshikka qarab yotadi. Diqqati oshib, dili qorong`i bo`lib ketgan kezlarda chelakni shaftoliga to`ldirib, yotog`imizga kelib qoladi. Bizni koyib-koyib taftini bosib ketadi. Oradan vaqt o`tdi. Bir kuni hamkasbimiz kelib, ertadan daryoning eski yo`li to`silishini, suv ko`tarilganda o`rikzorni suv bosishini, 3-4 kundan keyin u yerda yashaydiganlar ko`chirilishini aytib qoldi. Bu xabarni eshitdimu, birdan demak, kampir ham boshqa joyga ko`chiriladi degan hayollar keldi. Axir, u o`g`lining kelishiga uy oqlab, devorlarni tuzatyotgandi-ku!

U kampirning uyiga bordi. Kampir uyimga achinmayman lekin Ne`matginam kelganda meni topolmay sarson bo`lmasmikan, deyman deb ezilayotgandi. Axir bu xotin shu kulbada 50 yil umr kechirib, ne kunlarni ko`rmagan. Ochligiga ham, to`qligiga ham, baxtiga ham, baxtsizligiga ham guvoh bo`lgan uy, uning alamli kunlarini sir qilib saqlagan devorlar qoldi, xolos.

Natija

Oradan ancha vaqt o`tib yana xat keldi. Kampir xatni qorovulga o`qitgan. Xatda Ne`mat oyog`ini kesib tashlaganlarini aytibdi. Buni eshitgan kampir xushidan ketdi. Oylab yotib qoldi. Faqat bolam, bolaginam. O`z qo`ling bilan tuproqqa qo`y. To`yingni

ham ko`ra olmadim, hech bo`lmasa diydoringni bir ko`ray degan jumlar takrorlanardi. Yo`q. O`g`lining diydorini ko`rmay ko`z yumdi.

Uni dafn qilishga anchagina odam yig`ilgan edi. Bolasining o`rniga bola bo`lib, tobutining oldiga tushdim. Yo`l-yo`lakay yot, begona kishilar marosimga qo`shilaverdi.

Katta yo`lga chiqqanimizda bir harbiy yigit yuk xaltasini yerga qo`yib, oqsoqlana-oqsoqlana tobutning bir qanotini yelkasiga oldi. O`n qadam ham yurmay oyog`i qaltirab chetga chiqdi. Nihoyat, marosim orqasidan ancha vaqtgacha qarab turdi-da, xaltasini olib, to`g`on tarafga jadal yurib ketdi.

Qaytib kelganimizda o`sha harbiy yigitni uyda ko`rib hayron bo`ldik. U yog`och oyog`ini chiqazib, ayvon labidagi ustunga boshini tirab, qimirlamay o`tirardi. Endi bildim: bu Ne`mat edi. U onasining boshqa uyga ko`chganini bilmay, o`rikzorga borgan. Boya kimning tobutini ko`targanini ham bilmay qolgan...

Har gal shu taraflardan o`tishida o`sha uyini, daryoga cho`kkan, balki baliqlar yegan dadasini, ungaga o`sha suronli yillarda hammaga mehrini barobar sochgan munis ona chehrasini, uning oppoq paxtadek sochlarini eslardi. Bu yerlar unga front yo`liga ilhaq tikilgan ko`zlarini eslatadi. Qaynoq onalik tuyg`ulariga to`ymagan bolani fikran qidiraman. Qaysi jabhada ekan u?

Shunday otaning, shunday onaning bolasi hayotda o`z o`rnini topib olganiga ishonaman. Nazarimda, u oldinda, hammaning oldida shitob bilan olg`a ketayotgandek.

Xabar ber, xabar ber, qaydasan, uka!

Ne`mat juda qayg`uga botgan holda o`tirardi.

Essiz, farzand ota-onasi oldidagi burchini bajaraoldimi? Kampir o`z o`g`lidan emas begonadan oz bo`lsa-da mehr topdi. Bir umr farzand sog`inchi bilan, uni ko`rish, bag`riga bosish umidi bilam yashadi. Afsuski, hammasi armon bo`lib qoldi.

Muhokama

Said Ahmad "Onajonlar" hikoyasi o`zbek adabiyotidagi muhim asarlardan biridir. Bu hikoyada insoniy fazilatlar, mehr-oqibat va onalarning buyuk qadrini yuksak darajada ko`rsatish bilan ajralib turadi. Bu asarda yozuvchi inson va jamiyat hayotidagi muhim masalalarni oddiy lekin ta`sirli shaklda ochib beradi.

Asar orqali S.Ahmad jamiyatda onalarning tutgan o`rni va ularga bo`lgan hurmat-ehtiromning naqadar muhim ekanligini ta`kidlaydi. Asar davomida onalarning mehnati va ularning farzandlari uchun qilgan fidoyiliklari juda samimiy va ta`sirchan tarzda ochib berilgan.

Hikoya o`zbek xalqining urf-odatlarini va an`analarini tasvirlash orqali o`quvchiga tanish bir muhit yaratadi. Asarda oddiy odamlarning turmush tarzi, dardu tashvishlari, quvonchlari va orzu-umidlari aks ettirilgan. Onalar obrazi orqali insoniylik va mehr-

oqibatning yorqin namunasi tasvirlanadi. Har bir personajning xarakteri hayotiy va ishonarli bo'lib, ular orqali yozuvchi o'quvchiga muhim xabar yetkazadi.

Bugungi kunda ham hikoya o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Jamiyatda onalarning o'rni va ularni qadrlash mavzusi har doim ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu hikoya yoshlarga onalarga hurmat, ular bilan samimiy munosabatda bo'lish va oilaviy qadriyatlarni asrashni o'rgatadi. Shu bilan birgalikda, ota-onaga loyiq farzand bo'lish, ular hayotligida qadriga yetish, mehrga tashna paytida ularga suyanchiq aniqroq aytganda, ota-onaga loyiq farzand bo'lishdek sharaflı burch haqida ham o'ylashimizga asos bo'ladi. Aziz kitobxon! Bir oy'lab ko'ringchi? Said Ahmad bu hikoyasi orqali nima demoqchi, mutoalachiga nimani anglatmoqchi?

Xulosa

Said Ahmadning "Onajonlar" hikoyasi – bu o'zbek adabiyotining nodir durdonasi. U insonni o'ylantiradi, hayajonlantiradi va har-bir o'quvchiga ona degan ulug' tushunchaning qadriga yetishni o'rgatadi. Ushbu hikoya har bir insonning qalbiga yo'l topa oladigan, samimiy va hayotiy asarlardan biridir.

Said Ahmadning «Onajonlar» hikoyasi inson qalbiga chuqur ta'sir etadigan asarlardan biridir. Hikoya mazmuni oila, mehr-oqibat, fidoyilik va onalarning buyuk sevgisi haqida.

Hikoyada bir oilaning hayoti tasvirlangan bo'lib, onaning farzandlari uchun chekkan zahmatlari va ularga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbati tasvirlanadi. Ona o'z farzandlarining baxtli va komil inson bo'lib voyaga yetishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarini ishga soladigan zot. U hayotdagi qiyinchiliklarga sabr bilan bardosh berib, farzandlariga har tomonlama mehr ko'rsatadi. Onalar – jamiyki hayotning farishtalari.

Hikoya insoniylik, mehr-oqibat va oilaviy qadriyatlarning qadriga yetish zarurligini yorqin tasvirlagan. Said Ahmad oddiy, lekin ta'sirchan voqealar orqali har bir kishini onalarning buyukligi haqida mulohaza yuritishga undaydi.

Bu asar o'quvchiga ona mehrining cheksizligi va uning qadriga yetish lozimligini eslatadi. Hayotning eng muhim, muammoli vaziyatlarini, o'tmishning inson ruhiyatiga ta'sir qilgan momentlarini kichik epik janrga, hikoyaga badiiy akslantirishda Said Ahmad mahorati ko'zga tashlanadi. Yozuvchining har-bir hikoyasi badiiy mustahkamligi bilan adabiyotshunoslar e'tiborini ham o'ziga jalb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Narimov H.A. Adabiyot. Abituriyentlar uchun. -Urganch, 2021. 96-98 betlar.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.:Ўзбекистон, 2002.
4. Йўлдош. Қ, Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. Камалак. –Т., 2016- йил.
5. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006.
6. <https://www.econferencezone.org>.
7. <https://arxiv.uz>. Said Ahmad hikoyalari.
8. https://me.e_kutubxona
9. www.ziyouz.com
10. www.wikipedia.org
11. www.kh-davron.uz